



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№4

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

4-jild
4-son
Aprel, 2026

April, 2026
Volume 4
Number 4

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil
va audit**

**Accounting, economic analysis and
audit**

**Бухгалтерский учет,
экономический анализ и аудит**



TIJORAT BANKI VA KORXONA O'RTASIDAGI OPERATSIYALARNING BUXGALTERIYA HISOB VA UNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

Abduxalimova Marjona Xikmatovna

БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЁТ ОПЕРАЦИЙ МЕЖДУ КОММЕРЧЕСКИМ БАНКОМ И ПРЕДПРИЯТИЕМ И ИХ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ

Абдухалимова Маржона Хикматовна

ACCOUNTING OF OPERATIONS BETWEEN A COMMERCIAL BANK AND AN ENTERPRISE AND THEIR LEGAL AND REGULATORY FRAMEWORK

Abduxalimova Marjona Xikmatovna

Received: April 8, 2026 Revised: April 12, 2026 Accepted: April 19, 2026 Published: May 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi hamda ularni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy asoslar tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida bank hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar, kredit va depozit operatsiyalarining buxgalteriya hisobidagi o'rni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va milliy me'yoriy hujjatlar asosida o'rganildi. Tadqiqot natijalari bank operatsiyalarini hisobga olishda huquqiy-me'yoriy talablarning to'liq bajarilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini ta'minlashini ko'rsatdi. Olingan xulosalar buxgalteriya hisobi amaliyotini takomillashtirishda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: bank operatsiyalari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, huquqiy-me'yoriy asoslar, pul oqimlari.

АННОТАЦИЯ: В данной научной статье рассматриваются бухгалтерский учет операций между банком и предприятием, а также их правовые и нормативные основы. В процессе исследования проанализированы расчетные, кредитные и депозитные операции, осуществляемые через банковские счета, на основе международных стандартов финансовой отчетности и национальных нормативных документов. Результаты исследования показывают, что соблюдение правовых и нормативных требований при учете банковских операций обеспечивает достоверность и прозрачность финансовой отчетности. Полученные выводы имеют практическое значение для совершенствования системы бухгалтерского учета.

Ключевые слова: банковские операции, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, нормативно-правовая база, денежные потоки.

ABSTRACT: This scientific article examines the accounting treatment of operations between banks and enterprises and their legal and regulatory framework. The study analyzes settlement, credit, and deposit transactions conducted through bank accounts based on International Financial Reporting Standards and national regulatory documents. The findings indicate that proper compliance with legal and regulatory requirements in accounting for banking operations ensures the reliability and transparency of financial statements. The results of the study have both scientific and practical significance for improving accounting practices.

Keywords: banking operations, accounting, financial reporting, legal and regulatory framework, cash flows.

■ KIRISH

Hozirgi globallashuv va moliyaviy integratsiya sharoitida banklar va korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar iqtisodiy tizimning barqaror ishlashida

muhim o'rin egallaydi. Korxonalar faoliyatida banklar orqali amalga oshiriladigan hisob-kitob operatsiyalari, kredit munosabatlari, depozitlar, hisobvaraqlar orqali pul mablag'larining harakati buxgalteriya hisobining asosiy obyektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur operatsiyalarni



to'g'ri aks ettirish nafaqat korxonaning moliyaviy holatini haqqoniy ko'rsatish, balki moliyaviy intizom va huquqiy talablarning bajarilishini ta'minlash uchun ham zarurdir [1].

Ilmiy adabiyotlarda bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalar buxgalteriya hisobi, asosan, pul oqimlari, moliyaviy majburiyatlar va moliyaviy aktivlar hisobini tashkil etish doirasida o'rganilgan. Xususan, Kieso, Weygandt va Warfield tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Mualliflar bank hisobvaraqlari orqali pul mablag'lari harakatini aniq va o'z vaqtida hisobga olish moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun axborot sifatini oshirishini ta'kidlaydilar [2]. Ushbu yondashuv bank va korxona o'rtasidagi munosabatlarning buxgalteriya hisobidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Shuningdek, xalqaro tajribada bank operatsiyalarini hisobga olishning huquqiy-me'yoriy asoslari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) orqali tartibga solinadi. Jumladan, IAS 7 "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" standartlari bank hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarni operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat doirasida to'g'ri tasniflashni talab qiladi. Tadqiqotchilar ushbu standartning qo'llanilishi bank va korxona o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarning shaffofligini oshirishini qayd etadilar [3]. Bu esa buxgalteriya hisobida huquqiy-me'yoriy talablarning o'ri qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, milliy huquqiy tizim doirasida ham bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarni hisobga olish aniq me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Ilmiy ishlarda ta'kidlanishicha, bank operatsiyalarining buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilmasligi moliyaviy hisobotda xatoliklar yuzaga kelishiga va huquqiy mas'uliyatning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin [4]. Shu boisdan, ushbu mavzuni buxgalteriya hisobi va huquqiy-me'yoriy asoslar uyg'unligida o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirilish xususiyatlarini hamda ularni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy asoslarni ilmiy manbalar tahlili asosida yoritib berishdan iborat. Tadqiqot natijalari bank operatsiyalarini hisobga olish amaliyotini takomillashtirishga hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshirishga xizmat qilishi kutiladi.

■ METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarning buxgalteriya hisobi hamda ularni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy asoslarni chuqur va tizimli o'rganish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalarni tahlil qilish metodi (normativ-huquqiy va mazmuniy tahlil) tanlandi. Mazkur metod mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda eng maqbul yondashuv hisoblanadi, chunki bank operatsiyalari buxgalteriya hisobida qat'iy belgilangan standartlar va huquqiy normalar asosida yuritiladi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, bank va korxona o'rtasidagi moliyaviy operatsiyalarni tartibga soluvchi xalqaro va milliy me'yoriy hujjatlar mazmunan tahlil qilindi. Xususan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, ayniqsa IAS 7 "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" talablari bank hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish nuqtayi nazaridan o'rganildi. Ushbu standart pul mablag'lari harakatini aniq tasniflash va hisobotda shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, tadqiqotning metodologik asosini mustahkamlaydi [5].

Shuningdek, normativ-huquqiy tahlil doirasida O'zbekiston Respublikasida bank faoliyati va buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi asosiy qonunlar va me'yoriy hujjatlar o'rganildi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, huquqiy normalarning mazmunini tahlil qilish bank operatsiyalarining hisobda to'g'ri aks ettirilishini baholash imkonini beradi hamda amaliyotda uchraydigan muammolarni aniqlashga xizmat qiladi [6]. Shu boisdan, mazkur metod bank va korxona o'rtasidagi munosabatlarni nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy jihatdan ham kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

Normativ-huquqiy va mazmuniy tahlil metodi yordamida ilmiy maqolalar, darsliklar va rasmiy standartlarda keltirilgan yondashuvlar solishtirilib, bank operatsiyalarining buxgalteriya hisobida aks ettirilishidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlandi. Kieso va hammualliflar tomonidan taklif etilgan buxgalteriya yondashuvlari bank hisobvaraqlari bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishda nazariy asos sifatida qo'llanildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

Umuman olganda, tanlangan metod bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarni buxgalteriya hisobi va uning huquqiy-me'yoriy asoslari nuqtayi nazaridan tizimli o'rganish, mavjud me'yoriy talablarni umumlashtirish hamda ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi hamda ularni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy talablar normativ-huquqiy va mazmuniy tahlil metodi asosida o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, bank bilan bog'liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida to'g'ri va o'z vaqtida aks ettirilganda moliyaviy hisobotlarning ishonchligi va shaffofligi sezilarli darajada oshadi [7].

O'rganilgan ilmiy manbalar va me'yoriy hujjatlar asosida bank va korxona o'rtasidagi eng ko'p uchraydigan operatsiyalar aniqlandi hamda ularning buxgalteriya hisobida aks ettirilish holati tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, amaliyotda ayrim operatsiyalar bo'yicha xalqaro standartlar va milliy me'yorlar o'rtasida farqlar mavjud bo'lib, bu holat buxgalteriya hisobida muayyan murakkabliklarni keltirib chiqaradi [8].

Quyidagi jadvalda bank va korxona o'rtasidagi asosiy operatsiyalar, ularning buxgalteriya hisobidagi aks ettirilishi hamda huquqiy-me'yoriy tartibga solinishi umumlashtirilgan holda keltirilgan.

Bank va korxona o'rtasidagi asosiy operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tahlili

Operatsiya turi	Buxgalteriya hisobida aks ettirilishi	Me'yoriy-huquqiy asos	Tahliliy izoh
Bank hisobvarag'i orqali hisob-kitoblar	Pul mablag'lari va joriy hisobvaraqlarda aks ettiriladi	IAS 7, milliy buxgalteriya hisobi standartlari	Pul oqimlarini to'g'ri tasniflash hisobot shaffofligini oshiradi
Bank kreditlari	Majburiyat sifatida e'tirof etiladi	IFRS 9, bank faoliyati to'g'risidagi qonunlar	Kreditlarning noto'g'ri tasnifi moliyaviy xatolarga olib keladi
Foiz to'lovlari	Xarajat sifatida hisobga olinadi	IAS 23, soliq qonunchiligi	Foiz xarajatlari moliyaviy natijaga bevosita ta'sir qiladi
Depozit operatsiyalari	Moliyaviy aktiv sifatida e'tirof etiladi	IFRS, Markaziy bank me'yorlari	Likvidlik darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bank orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar buxgalteriya hisobida aniq standartlar asosida yuritilishi lozim. Kieso va hammualliflar ta'kidlaganidek, bank hisobvaraqlari bilan bog'liq operatsiyalar moliyaviy hisobotning eng sezgir elementlaridan biri bo'lib, ulardagi har qanday xato foydalanuvchilar qarorlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi [9].

Tahlil natijalari shuni ham ko'rsatdiki, IAS 7 talablari asosida pul oqimlarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat turlariga ajratish bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa korxonaning real moliyaviy holatini baholashda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, o'tkazilgan tahlil bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish huquqiy-me'yoriy hujjatlarga qat'iy rioya qilish bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatdi. Ushbu holat moliyaviy hisobot sifatini oshirish va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ishonchli axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishi, avvalo, amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar va xalqaro standartlarga qat'iy rioya etilishiga bog'liqligini ko'rsatdi. Olingan natijalar ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar xulosalari bilan sezilarli darajada uyg'un ekanligi kuzatildi. Xususan, bank hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladigan pul oqimlarini to'g'ri tasniflash moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishi haqidagi xulosalar avvalgi tadqiqotlarda ham alohida ta'kidlangan [10].

Kieso, Weygandt va Warfield tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank bilan bog'liq operatsiyalar moliyaviy hisobotning eng muhim va xatolarga sezgir qismlaridan biri ekanligi qayd etiladi. Ushbu tadqiqot natijalari ham mazkur fikrni tasdiqlaydi, ya'ni kreditlar, foiz xarajatlari va depozit operatsiyalarining noto'g'ri e'tirof etilishi korxonaning moliyaviy holatini buzib ko'rsatishi mumkin. Bu jihat bank va korxona o'rtasidagi munosabatlarni hisobga olishda professional yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, IAS 7 "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" talablari asosida olib borilgan tahlil natijalari xalqaro tadqiqotlarda keltirilgan xulosalar bilan mos

keladi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu standart bank operatsiyalarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat doirasida aniq ajratish orqali foydalanuvchilar uchun tushunarli axborot taqdim etishini ta'kidlaydi [11]. Tadqiqot natijalari ham aynan shu yondashuv bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarni chuqurroq tahlil qilish imkonini berishini ko'rsatdi.

Biroq, tadqiqot davomida ayrim farqli jihatlar ham aniqlandi. Xususan, milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida xalqaro standartlar talablari to'liq joriy etilmagan holatlar mavjudligi kuzatildi. Bu holat A.Karimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham qayd etilgan bo'lib, muallif milliy me'yoriy hujjatlarining ayrim jihatlarini zamonaviy xalqaro talablar bilan to'liq uyg'un emasligini ta'kidlaydi. Mazkur tadqiqot natijalari ushbu fikrni amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarning buxgalteriya hisobi bo'yicha olingan xulosalar ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'un bo'lib, shu bilan birga, milliy hisob tizimini xalqaro standartlar bilan yanada yaqinlashtirish zarurligini ham ko'rsatadi. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy maqolada bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarning buxgalteriya hisobi hamda ularni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy asoslar kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari bank orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar, kredit va depozit operatsiyalari korxona moliyaviy holatini aks ettiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Ushbu operatsiyalarning buxgalteriya hisobida to'g'ri va o'z vaqtida aks ettirilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchligi va shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va milliy huquqiy-me'yoriy hujjatlar o'rtasidagi uyg'unlik masalasi alohida e'tiborga olindi. O'rganilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, xalqaro standartlar bank va korxona o'rtasidagi operatsiyalarni hisobga olishda yanada tizimli va shaffof yondashuvni ta'minlaydi, biroq milliy hisob amaliyotida ushbu talablarni to'liq joriy etish zarurati hanz dolzarbligicha qolmoqda.



Umuman olganda, maqola doirasida olingan xulosalar bank operatsiyalarini buxgalteriya hisobida yuritishda huquqiy-me'yoriy talablar va ilmiy yondashuvlarning uyg'unligi muhim ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari buxgalteriya hisobi amaliyotini takomillashtirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda moliyaviy hisobot foydalanuvchilarini ishonchli axborot bilan ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Abduxalimova Marjona Xikmatovna Qarshi davlat texnika universiteti "Bank ishi va audit" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi / Абдухалимова Маржона Хикматовна Студентка 3-го курса направления «Банковское дело и аудит» Каршинский государственный технический университет / Abduxalimova Marjona Xikmatovna 3rd-year student in Banking and Auditing Karshi State Technical University
E-mail: marjonaxikmatovna@gmail.com
ORCID: 0009000670268063

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, B. A. (2020). Buxgalteriya hisobi va audit asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 112–118-betlar. Havola: <https://ziyonet.uz>
2. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. (2019). Intermediate Accounting (16th ed.). Wiley, pp. 230–245. Link: <https://www.wiley.com/en-us/Intermediate+Accounting>
3. International Accounting Standards Board (IASB). (2023). IAS 7 – Statement of Cash Flows. London. Link: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-7-statement-of-cash-flows/>
4. Karimov, B. A. (2020). Buxgalteriya hisobi va audit asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 95–104-betlar. Havola: <https://ziyonet.uz>
5. International Accounting Standards Board (IASB). (2023). IAS 7 – Statement of Cash Flows. London. Link: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-7-statement-of-cash-flows/>
6. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. (2019). Intermediate Accounting (16th ed.). Wiley, pp. 210–225. Link: <https://www.wiley.com/en-us/Intermediate+Accounting>
7. Karimov, B. A. (2020). Buxgalteriya hisobi va audit asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 145–152-betlar. Havola: <https://ziyonet.uz>
8. International Accounting Standards Board (IASB). (2023). IAS 7 – Statement of Cash Flows. London. Link: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-7-statement-of-cash-flows/>
9. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. (2019). Intermediate Accounting (16th ed.). Wiley, pp. 240–255. Link: <https://www.wiley.com/en-us/Intermediate+Accounting>
10. Karimov, B. A. (2020). Buxgalteriya hisobi va audit asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 158–165-betlar. Havola: <https://ziyonet.uz>
11. International Accounting Standards Board (IASB). (2023). IAS 7 – Statement of Cash Flows. London. Link: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-7-statement-of-cash-flows/>
12. Karimov, B. A. (2020). Buxgalteriya hisobi va audit asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 158–165-betlar. Havola: <https://ziyonet.uz>
13. Brigham, E. F., & Ehrhardt, M. C. (2020). Financial Management: Theory & Practice (15th ed.). Cengage Learning. <https://www.cengage.com>
14. Палий, В. Ф. (2018). Бухгалтерский учет и отчетность в коммерческих организациях. Москва: ИНФРА-М, 384 с. <https://znanium.com>
15. Ковалев, В. В. (2019). Финансовый учет и анализ. Москва: Проспект, 432 с. <https://www.prospekt.org>
16. Соколов, Я. В. (2017). Основы бухгалтерского учета. Москва: Магистр, 320 с. <https://urait.ru>
17. Лысенко, Д. В. (2021). Учет банковских операций в системе финансовой отчетности. Финансы и кредит, 27(4), 891–905. <https://www.finizdat.ru/journal/fc/>



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz